

“OLMALIQ SHAHRI URBANISTIKASI: SHAHAR HAYOT SIFATINI OSHIRISH VA BARQAROR RIVOJLANISHDAGI ROLI”

Javohir Xaydaraliyev

(TAQU)

javohirxaydaraliyev293@gmail.com

Annotatsiya: *Olmaliq shahri urbanistikasi shahar hayot sifatini oshirish va barqaror rivojlanishda muhim rol o'ynaydi. Tezisdagi shahar muhitidagi muammolar va ularni hal qilish bo'yicha amalga oshirilayotgan yechimlar, jumladan yashil belbog yaratish, bog'lar va dam olish zonalarini kengaytirish, transport tizimini optimallashtirish va ekologik qurilish tamoyillari ko'rsatilgan.*

Abstract: *The urban planning of Olmaliq plays an important role in improving the quality of life and sustainable development. The thesis examines the problems of the urban environment and the solutions being implemented, including the creation of a green belt, expansion of parks and recreational areas, optimization of the transport system, and the application of ecological construction principles.*

Аннотация: *Градостроительство города Алмалык играет важную роль в повышении качества жизни и устойчивом развитии. В тезисе рассматриваются проблемы городской среды и реализуемые решения, включая создание «зелёного пояса», расширение парков и зон отдыха, оптимизацию транспортной системы и применение экологических принципов строительства.*

Kalit so'zlar: *Urbanistika, shahar arxitekturasi, barqaror rivojlanish, yashil hudud, Olmaliq*

Keywords: *Urban planning, city architecture, sustainable development, green areas, Olmaliq*

Ключевые слова: *Градостроительство, городская архитектура, устойчивое развитие, зелёные зоны, Алмалык*

Kirish. Olmaliq shahri urbanistikasi shahar hayot sifatini oshirish va barqaror rivojlanishda muhim ahamiyatga ega. Shahar arxitekturasi, infratuzilma va jamoat maydonlari aholi hayotini bevosita ta'sir qiladi. Hozirgi kunda shaharda aholi zichligi oshishi, transport oqimi va ekologik muammolar urban muhitni sifatli rivojlantirish masalalarini dolzarb qiladi. Shu bois Olmaliq shahrida barqaror urbanistik yechimlarni ishlab chiqish va joriy etish zarur [1]. Olmaliq shahrida urbanistik muhitni rivojlantirish bilan bog'liq bir qancha muammolar mavjud. Jumladan:

1. Shaharda transport oqimi ko'p;
2. Piyodalar uchun hududlar yetarli emas;
3. Ko'chalar va jamoat maydonlari ekologik va ijtimoiy jihatdan qulay emas.

Olmaliq shahri sanoatlashgan hudud bo'lganligi sababli ekologik muammolar ko'payishi, yashil hududlar yetishmasligi va energiya resurslaridan samarali foydalanilmasligi shahar hayot sifatini pasaytiradi. Bu omillar shahar aholisi uchun qulay va xavfsiz yashash muhitini yaratishda to'siq bo'ladi.

Natija. Olmaliq shahri urbanistik muhitini yaxshilash bo'yicha bir qator yechimlar amalga oshirilmoqda. Piyodalar uchun qulay hududlar va jamoat maydonlari tashkil qilinmoqda, shahar ko'chalari va transport tizimi optimallashtirilmoqda. Yashil hududlar kengaytirilib, bog'lar va dam olish zonalari barqaror urbanistika prinsiplari asosida rejalashtirilmoqda. Olmaliqda transport oqimi ko'p bo'lganligi sababli ko'plab tirbandliklar, ekologik muammolar ko'paygan. Bunga yechim sifatida olmaliq shahrini "yashil belbog" tamoyili asosida loyihalash va yashil o'simliklarni ko'paytirish muhimdir [2]. Yashil hududlar tirbandlikni kamaytirishga, havo sifatini yaxshilashga va shahar muhitini ekologik barqaror qilishga xizmat qiladi. Olmaliq shahridagi ko'chalar va jamoat hududlari ilgari qulay emas edi ammo hozirda ushbu muammoni hal qilish maqsadida yangi ekodizayn asosida ko'chalar loyihasi va bog'-park, hiyobon hududlariga yangi taklif loyihalar kiritilmoqda. Shu bilan birga shahar sanoatlashganligi uchun rekreatsion hududlarni kengaytirish ishlari ham boshlangan va 2030 yilga qadar shahar batamom barqaror va ekologik va landshaft dizayni yangilanishi rejalashtirilgan [3].

Olmaliq shahrida energiya resurslaridan samarali foydalanish va ekologik qurilish tamoyillari joriy etilishi shaharning barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi. Shu yo'sinda olmaliq shahri urbanistikasi aholi hayot sifatini oshirish va xavfsiz, qulay muhit yaratishda muhim rol o'ynaydi.

Xulosa qilib aytganda olmaliq shahrida barqaror urbanistik yechimlarni joriy etish shahar hayot sifatini oshirish, ekologik muvozanatni saqlash va transport muammolarini kamaytirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. J. Gail. Cities for People. Concern "KROST", 2012.
2. A.V. Efimov, et al. Design of the Architectural Environment: Textbook. Moscow: Architecture-C, 2006.
3. S.V. Solodyankina, M.V. Levasheva. Landscape-Ecological Planning for Optimizing Nature Management. Irkutsk: ISU Publishing House, 2013.